XALQ TABOBATI: TARIXIY TAJRIBA, IJTIMOIY AHAMIYATI VA DAVOLASH USULLARI.

Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti, o‘qituvchi.
abduraxmonova_k@nuu.uz
ORCID: 0009-0004-8043-4606

ANNOTATSIYA.
Mazkur maqolada xalq tabobatining tarixiy shakllanishi, jamiyat hayotidagi o‘rni hamda zamonaviy tibbiyot bilan o‘zaro aloqadorligi tahlil qilinadi. Xalq tabobati asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan amaliy tajriba, milliy qadriyatlar va tabiat bilan uyg‘un yashash an’analari asosida rivojlangan. Turli kasalliklarni davolashda qo‘llanilgan o‘simliklar, tabiiy mahsulotlar, mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar va boshqa an’anaviy vositalarning qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida dori vositalarini tanlash omillarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Xalq tabobati, sog‘liqni saqlash, dori vositalari, tibbiy savodxonlik, ijtimoiy omillar, an’anaviy davolash.

KIRISH.

Xalq tabobati asrlar davomida xalq og‘zaki ijodi, tajribasi va madaniy qadriyatlari asosida shakllangan murakkab ijtimoiy - huquqiy va tibbiy hodisa bo‘lib, milliy o‘zlik, etnik xotira, tabiat bilan uyg‘unlik, e’tiqodlar bilan uzviy bog‘liq. O‘zbek xalqining tabobat an’analari ham qo‘lga kiritilgan emperik bilimlari, sohada yetishib chiqqan tabiblarning samarali faoliyati, diniy va milliy qadriyatlari bilan o‘zaro integratsiyalashuvi sabab mahalliy xususiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM.

Xalq tabobatida tabiiy davolash usullari yuqumli kasalliklar va turli epidemiyalarni davolashda yordam beradi. Qishloq joylarda yoki zamonaviy tibbiyot sust rivojlangan hududlarda xalq tabobati davolash usullari keng foydalaniladi. Misol uchun, Covid – 19 pandemiyasi davrida xalq tabobatiga bo‘lgan qiziqish va ishonch butun dunyo bo‘ylab rivojlandi. Pandemiyaning dastlabki bosqichida Covid – 19 uchun aniq va samarali ishlab chiqilgan vaksinaning mavjud emasligi, jamiyat ongida bu kasallik haqidagi vahimali fikrlarning mavjudligi insonlarni xalq tabobati davolash usullarini izlashga undadi. Insoniyat immunitet tizimini kuchaytirish maqsadida tabiiy vositalarga murojaat qildi. Misol uchun, sarimsoq, zanjabil, limon kabi mahsulotlardan keng foydalanildi. Bunga sabab jamiyat tanish va sinovdan o‘tgan usullarga murojaat qilishni afzal ko‘rdi. Xalq tabobati xalq uchun sodda, hayotiy va tushunarli tilda ifodalanishi insonlarda o‘z salomatligini boshqarish imkoniyati bor degan ishonchni beradi. Xalq tabobatida tayyorlanadigan vositalar arzon, bozorda, uyda mavjud bo‘lgan mahsulotlardan iborat. Bu holat ayniqsa moddiy jihatdan qiynalayotgan oila uchun muhim ahamiyatli hisoblanadi. Zamonaviy dorilarning kimyoviy tarkibi va nojo‘ya ta’sirlari haqidagi xavotirlari insonlarni tabiiy, xavfsiz deb hisoblangan usullarga, ya’ni xalq tabobatiga

murojaat qilishiga olib keldi. Jumladan, oddiy olxo‘ri ishtaxani ochadi, ovqatni hazm qiladi, qondagi gemoglabinni oshiradi. Bu esa immunitetni oshirishga yordam beradi.

Xalq orasida kasalliklarni davolashning zamonaviy usullari ham keng ommalashib bordi. Buning ham ijobiy ham salbiy oqibatlari natijasida xalq ongida tibbiy bilimlarni oshirish, tabobatning kimyoviy usullariga nisbatan foydali, ishonchli ekanligini tushuntirish, tibbiyot yutuqlari bilan aholini xabardor qilish maqsadga muvofiqligi oydinlashdi. Lekin inson shuni unutmasligi lozim har bir organizm o‘zini o‘zi davolash funksiyasiga ega bo‘lib, to‘g‘ri ovqatlanish, uyqu rejimini yahshilash, vitaminli mahsulotlarni iste’mol qilish, ruhiy zo‘riqishni kamaytirish organizmni sog‘lom bo‘lishini ta’minlaydi.

Xalq orasida kasalliklarni davolashda turli yo‘llardan foydalanilishini uchratamiz. Misol uchun, qorin og‘rig‘ida ravoch, anor po‘stining damlamasi, achchiq choy va yengil ovqatlar, nafas olish yo‘li kasalliklarida lavlagi sharbati, jambil damlamasi, asal, bezgakda anor po‘stining damlamasi, chipqon chiqqanda qo‘y yog‘i, yangi kesilgan yaralarda kuldan foydalaniladi. Kul qonni to‘xtatadi, yarani yiringlamasdan bitishiga yordam beradi [4, b. 86]. Bezgakni davolashda noodatiy xina barglaridan, ko‘krak kasalliklarida tashqi muolaja uchun maxsus malham giyoh daraxt va butalarni zararlaydigan qo‘ng‘izchani maydalab tayyorlangan malhamdan foydalaniladi. Holsizlangan organizmni tetiklashtirish uchun malhamni ichga qabul qilganlar. Zaxm (bu ko‘pincha teri yoki shilliq qavatda paydo bo‘ladigan, yuqumli, ochiq yara) bilan kasallanganlarni davolash uchun simobning 4,26 gramm miqdorini qabul qilish foyda beradi va ishtahani ochishda foydalanilgan. Shu bilan birga, Buxoroda xushbo‘y giyohlarga mis qo‘shib tayyorlangan aralashmaning ham foydasi ko‘p. Yaralarni davolashda Rossiyadan keltirilgan simobli malhamlar va Buxorodan keltirilgan simob sulfidi aralashmalaridan iborat giyohlar keng qo‘llaniladi.

Tabiblar giyohlar bilan birga ruhiy davolash usuli bilan ham bemorlarni davolaganlar. Masalan, turli xil tumorlarni taqib yurish, uyga hayvon shoxlari yoki shunga o‘xshash narsalarni osib qo‘yish. Shuningdek, turli irim-sirimlar, tepki kasalligida yoshi katta nuroniy ayolga teptirsa kasal tuzalib ketadi, tug‘ruq vaqtida o‘sha xonaga sigir shoxini ilib qo‘yilsa, tug‘ruq oson kechadi deb hisoblangan. Bunga mahalliy aholi chindan ishonib, tuzalib ketgan holatlari ham ko‘p bo‘lgan [3].

Xalq tabobatida tabib asosan tashxis qo‘yishda tomir urishi, teri rangidan tashqari organizmdagi 4 xil suyuqlik: safro, savdo, qon va balg‘amni tekshiradi. Ushbu suyuqlikning tashqi va ichki omillar sababidan kamayib yoki ko‘payib ketishi mijozning o‘zgarishiga olib kelgan va bu holat kasalliklarning bosh sababchisi deya qaralishi manbalarda keltiriladi [1, b. 28].

Davolanishning yana bir yo‘li bu tabiiy shifobaxsh joylar yoki hududlardagi tabiiy suvlardan foydalanish bo‘lgan. Masalan, Qo‘qonda bezgakka chalinganlar uchun maxsus joylar bo‘lib, u yerdagi shifobaxsh tuzli ko‘llarda turli kasalikka chalingan bemorlar davo topganlar. Qo‘qondan 40 km uzoqlikda joylashgan Qamishqo‘rg‘on ko‘lida bod bilan kasallanganlar davolangani va uning shifobaxshligi xususida Rossiyadan kelib, Qo‘qonda faoliyat yuritayotgan shifokorlar ham e’tirof etgan [6, b. 93-94].

Qo‘ytosh tepaliklarida joylashgan Arasan shifobaxsh buloq suvining tarkibi mineral moddalarga boy bo‘lib, suv tarkibida inson tanasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli

tuzlar, oltingugurtga boy bo‘lgan metallar mavjud. Arasan buloq suvi bir qator kasalliklarga shifo. Mineral suv tarkibidagi oltingugurt va metall qorishmalari qon – tomir kasaliklari, tanaga yog‘ yig‘ilishi, bo‘g‘im og‘riqlari, ko‘p ovqatlanish natijasida qonning buzilishi, oyoq og‘rig‘i kasalliklarida qon zaharlanishi, qonda oqsilning ko‘payishi kabi kasalliklarga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan. Ushbu mineral suv zaxm kasalligini davolashda ham samarali natija bergan. Arasan buloq suvi tarkibidagi ma’danlar teri – tanosil kasalligi bilan og‘rigan bemorlar uchun foydali bo‘lishi bilan birga, bu buloqning yuqori haroratli suvida vanna qabul qilish teridagi ko‘p turli yiringli yaralarni ham bartaraf etishda qo‘l kelgan. Shu bilan birga, teri orqali mayda qon tomirlariga ta’sir o‘tkazib, qondagi teri kasalligini keltirib chiqaruvchi mikroblarning rivojlanishini to‘xtatgan. Suvning kimyoviy tarkibi teri osti yog‘lariga ta’siri natijasida inson tanasi uchun shifobaxsh surtma malham vazifasini bajargan. Shunday o‘zining shifobaxsh xususiyatlari bilan mahalliy aholiga ma’lum bo‘lgan Kattaqo‘rg‘ondan Jomga borish yo‘lidagi Sho‘r buloqlardan biri nomi bilan tanilgan. Sho‘r bulog‘i Sho‘r hududida joylashgan bo‘lib, mahalliy aholi azaldan mintaqaga mashhur bo‘lgan bu yerning suvlari suyak sinig‘i va teri kasalliklarida foyda berishini bilgan va foydalanib kelgan. Ushbu suvning shifobaxsh xislatlaridan foydalanish uchun Buxoro, Karmana, G‘uzor, Boysun, Sherobod, va Amudaryo havzasida yashovchi boshqa aholi hududlaridan odamlar kelganlar. May va iyun oylarida Sho‘r suvlarida cho‘miluvchi bemorlarning oqimi juda ko‘p bo‘lib, ularning soni 200 kishigacha yetgan. Sho‘r suvlarda cho‘milish bel va umurtqa og‘rig‘i, bod kasali bilan og‘riganlarga davo bo‘lgan. Sho‘r suvida bir marta vanna qabul qilish bilan cheklanilgan. Shundan so‘ng bemorlar qaynoq qumga ko‘milib yotganlar. Rus tadqiqotchisi A. Grebenkin tadqiqotlarida sho‘r suvini yanada chuqurroq o‘rganish katta foyda berishi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan [6, b. 95-96]. Shuningdek, turli xil kasalliklarni davolashda shifobaxsh chashmalar, mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlardan, hammomlardan ham keng foydalaniladi. Mana shunday tabiiy chashma suvlaridan biri Andijondagi “Hazrat Ayub” chashmasi. Ushbu chashma hududida muqaddas (Hazrati payg‘ambar Ayubning) qabri ham mavjud bo‘lib, mahalliy ziyoratchi-bemorlar bu qabrni ziyorat qiladi. Ushbu chashma suvlari shirincha (bolalar teri kasalligi), revmatizm, suyaklar sinishi, sifilis va boshqa teri toshmalari uchun nihoyatda foydali hisoblanadi. Mashhur Qo‘qonlik olim va tabib Mahmud Yayfoniy Xo‘qandiy o‘z davrigacha Sharq tabobatida qo‘lga kiritilgan yutuqlarga shaxsiy hamda tibbiy tajribalarini qo‘shgan holda, ikkita katta kitob yozib qoldirdi. Ulardan biri “Tariq al-iloj” (“Davolash usuli”) 1910-yilda yozib tugatilgan va 1913-yilga kelib tosh bosmada nashr qilingan. “Davolash usuli” 4 maqoladan iborat bo‘lib, unda o‘pka, yurak, ko‘krak, me’da, jigar, sariq kasalligi, ichak kasalliklar, buyrak va qovuq kasalliklari, erkaklar va ayollarga xos kasalliklar, bel, qo‘l, oyoq kasalliklari va isitma to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu kasalliklarni davolash uchun dorivor giyoh va ma’danlardan tayyorlanadigan dorilar haqidagi ma’lumotlar ham uchraydi [5, b. 145]. “Tariq al – uloj” asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra shifobaxsh maskanlardan yana biri Qo‘qon yaqinidagi “Qamish qo‘rg‘on” nomli tuzli ko‘li bo‘lib, tubida 36° darajadagi balchiqli joyi bor. Bu shifobaxsh balchiq asosan bod kasalliklariga davo. Har yili bu ko‘lga turli hududlardan ko‘plab kasallar keladi va 2-3 ta muolajalardan keyin ancha yengillik sezadi. Mahalliy shifokorlarning aytishicha, hattoki jarrohlik qilish zarur bo‘lgan yiringli

zotiljam bilan og‘rigan bir bemor “Qamish qo‘rg‘on” ko‘lida muolaja olganidan so‘ng, ancha tuzaladi va jarrohlik amaliyoti o‘tkazilishiga ehtiyoj qolmaydi. Bu balchiq xalq orasida mashhur bo‘lib, ko‘pgina tabiblar Qo‘qon, Marg‘ilon va Toshkent hududidagi kasallarni bu yerga jo‘natadi [7, b. 187].

Xalq tabobatida tabiiy giyohlardan keng foydalaniladi. Dori mahsulotlari xususida o‘tkazilgan so‘rovnomaga ko‘ra, “Siz dori mahsulotlarini shifokor buyurgani uchun olasizmi yoki tanishlaringiz maslaxat bergani bo‘yichami?” savolimizga quyidagicha javob oldik [2]. Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri 30-65 yosh vakillari (erkak, ayol), Toshkent shahri 25-78 yosh vakillari (erkak, ayol) bergan javoblariga ko‘ra har ikkala hududda ham dori vositalarini tanlashda eng asosiy omil sifatida shifokor tavsiyasi va tashxisi qayd etildi. Qarshi shahri respondentlarining 63 foizi, Toshkent shahri respondentlarining esa 56 foizi dori amahsulotlarini aynan shifokor ko‘rsatmasi asosida xarid qilishini bildirgan. Bu holat aholi orasida tibbiyotga bo‘lgan ishonch nisbatan yuqori ekanligini va davolanish jarayonida mutaxassis tavsiyasiga amal qilish ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Lekin televideniya orqali beriladigan dori vositalari reklamalarining ta’siri hududlar kesimida sezilarli farqlanadi. Qarshi shahri respondentlarining 15 foizi dori tanlashda reklama ta’siri ustun bo‘lsa, Toshkent shahri respondentlarida bu ko‘rsatkich 40 foizni tashkil qildi. Bu farq yirik shaharlarda ommaviy axborot vositalari va marketing kommunikatsiyalarining aholi qarorlariga kuchliroq ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. “Tanish shifokor tavsiyasi asosida” javobini tanlagan respondentlar ulushi Qarshi shahrida 20 foiz, Toshkent shahrida esa 4 foizni tashkil etdi. Bu natija Qarshi shahrida norasmiy ijtimoiy aloqalar va shaxsiy tanish-bilishlar tibbiy qarorlar qabul qilishda muhimroq o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Toshkent shahrida esa aholi ko‘proq institutsional tibbiy xizmatlarga murojaat qilishi kuzatiladi. “Dorixona sotuvchisidan so‘rayman” degan javob Qarshi shahrida 2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Toshkent shahrida ushbu variantni tanlagan respondentlar kuzatilmadi. Bu ko‘rsatkich dorixona xodimlarining tavsiyalari dori tanlashda ikkilamchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. E’tiborlisi, “tabib retsepti asosida” javobi har ikkala hududda ham respondentlar tomonidan tanlanmagan. Bu esa tadqiqotda ishtirok etgan aholining dori vositalarini tanlashda an’anaviy tabobat emas, balki zamonaviy tibbiyot va farmatsevtik tizimga ko‘proq tayanayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari dori vositalarini iste’mol qilish madaniyatida shifokor tavsiyasi yetakchi o‘rin egallashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Toshkent shahrida reklama omilining ta’siri yuqoriroq bo‘lsa, Qarshi shahrida shaxsiy tanishlar va norasmiy maslahatlar nisbatan muhimroq rol o‘ynashi aniqlandi. Ushbu holat hududlarning ijtimoiy-madaniy muhiti, axborot maydoni va tibbiy xizmatlardan foydalanish xususiyatlari bilan izohlanishi mumkin.

Shunday qilib, asrlar davomida xalq kasalliklarni davolash yoki bemorning ahvolini yengillashtirish maqsadida turli xil davo yo‘llarini ishlab chiqishgan. Bu yo‘llar oddiy, qo‘l ostida mavjud bo‘lgan narsalar orqali yoki psixologik ta’sir orqali bajarilgan va aholiga bu usullar yordam bergan.

XULOSA.

Xalq tabobati xalqning ko‘p asrlik tajribasi va madaniy merosiga asoslangan davolash tizimi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aholi kasalliklarni davolashda ham xalq tabobati, ham zamonaviy tibbiyot usullaridan foydalanadi. Dori

vositalarini tanlashda esa shifokor tavsiyasi muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun aholining tibbiy savodxonligini oshirish va ilmiy asoslangan davolash usullarini keng targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy risolalar. Nashrga tayyorlovchilar: O‘.I. Karimov, H. Hikmatullayev. – Toshkent: Fan, 1987. – b.28.

2. Dala yozuvlari. Toshkent, Qashqadaryo shahri. 2024.

3. Dala yozuvlari. Toshkent shahri Yashnobod tumani Birlashgan mahalla. 2025.

4. Jumanazarov X. O‘zbek xalqining tabobat an’analari // Imom Buxoriy saboqlari. – Toshkent, 2016. – b.86.

5. Nazirov M.N. “Tariq ul – iloj” turkiy tilda yozilgan eng mukammal tibbiy asar // O‘zbekiston tibbiyot jurnali. – 2013. – b.145.

6. Shadmanova S.B. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda tibbiyot va xalq tabobati. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2020. – b. 93 – 96.

7. Sharq tabobati. Nashriyotga tayyorlovchi, tarjimon, maqolalar va sharqlar muallifi Hikmatullayev. H. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – b.187.